



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 18-avgust

VII-13-94-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

Kattaqo‘rg‘on tuman hokimi J.Nasriddinovning tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisoboti to‘g‘risida

2025 yil davomida 2 703 ta oila (*12 385 nafar oila a’zolari*) kambag‘allikdan chiqarishning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlandi. Tasdiqlangan dasturni mahallalar va yo‘nalishlar kesimida parametrlari ishlab chiqildi. Shundan, 345 ta oilaga 69 nafar rahbarlar biriktirilgan.

Yanvar-iyun oylari davomida 1 407 ta (*6 439 ta a’zosi*) kambag‘al oilani kambag‘allikdan chiqarish rejorashtirilgan bo‘lib, haqiqatda 2 657 ta (*11 885 ta a’zosi*) oila (185 %) xizmatlar bilan qamrab olinib, ularga 3 590 ta xizmatlar ko‘rsatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi “2025-yilda aholi bandligini ta’minalash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-12-sonli qarori ijrosini ta’minalash maqsadida tumanda 23,6 ming nafar ish o‘rinlari tashkil etish va aholini daromadli mehnat bilan band qilish rejasiga belgilangan.

Joriy yilning Yanvar-iyun oylarida 11 273 nafar aholini band qilish rejorashtirilgan bo‘lib, haqiqatda 14 206 nafar aholi bandligi ta’minaldi yoki rejaga nisbatan 126 % ga bajarildi.

2025 yil uchun tuman mahalliy byudjet daromadlar rejasiga 168,2 mlrd so‘m belgilangan bo‘lib, reja 183,2 mlrd.so‘mlik (108,5 %), yoki 15,0 mlrd.so‘m ortig‘i bilan bajarilishi bo‘yicha barcha imkoniyatlar ishga solinib, ijrosini ta’minalash borasida amaliy ishlar olib borilmoqda.

Joriy yilning 1 chorak uchun 34,8 mlrd.so‘m reja belgilananib, haqiqatda 35,7 mlrd.so‘mga yoki 102,5 % ga bajarildi.

2 chorak uchun 43,7 mlrd.so‘m reja belgilananib, haqiqatda 46,6 mlrd.so‘mga yoki 107,0 %ga bajarildi.

Joriy yilning 3-chorak uchun 42,0 mlrd.so‘m reja belgilangan, Chorak yakuni bilan byudjetga 4,0 mlrd.so‘m qo‘sishimcha tushum undirilishi bo‘yicha barcha zaruriy choralar ko‘rib borilmoqda.

“Bir kontur – bir mahsulot” tamoyilini joriy etish, mahsulotlarni ichki bozorga yetkazib berish va mahallalarning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha aniq hisob-kitoblarni, dehqon xo‘jaliklari yer maydonlariga ekiladigan ekinlarni joylashtirish (razmesheniya) bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlarini belgilab olindi va bu bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Hisob kitoblarga asosan ijara asosida ekin yeri berilgan 5 217 nafar fuqarolar tomonidan 1 931 hektar ijara yer maydonlari mavjud.

Ushbu maydonlarga kooperativ usulida mahsulot yetishtirish, qayta ishlash va eksportga yo‘naltirish uchun 15 ta qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi yirik lider tadbirkorlar biriktirildi.

“Bir kontur-bir mahsulot” tamoyili asosida 109 hektar yer maydonida qiymati 3,9 mlrd.so‘mlik (o‘z mablag‘i hisobidan 3,7 mlrd.so‘m, bank krediti hisobidan 200,0 mln so‘m) 11 ta loyihalar amalga oshirilishi rejorashtirilgan.

Ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun 6 ta aggregatorlar biriktirilib, ulardagi kooperativlar soni 277 tani tashkil qiladi. 1 ekin uchun 2 790 tonna umumiyligi qiymati 19,5 mlrd so‘mlik hosil yetishtirilishi kutilmoqda. Bir yer ijarachiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha foyda 70,5 mln.so‘mni tashkil etadi.

-“Sayxunobod” tajribasi asosida har bir mahallada kamida 40 tadan jami 2 760 ta mikroloyihalarni amalga oshirish va bu orqali 5 520 nafar aholi bandligi ta’minalash belgilangan. Shundan yanvar-iyun rejasiga 1 380 ta amalda 1 503 ta mikroloyihalar ishga tushirilib, umumiyligi qiymati 115,0 mlrd.so‘mlik loyihalar amalga oshirildi yoki 109,0 foizga bajarilib, buning natijasida 3 086 ta yangi ish o‘rnulari yaratildi.

-“G‘ijduvon tajribasi” asosida 2025 yil davomida 7 ta mahalladagi qiymati 23,3 mlrd.so‘mlik shundan: 23,1 mlrd.so‘m o‘z mablag‘i, 0,2 mlrd.so‘m bank krediti hisobidan 7 ta “tepaga o‘sadigan” (vertikal) mikrosanoat binolarini barpo etish orqali 79 ta fuqarolarni bandligini shu jumladan 10 nafar kam ta’minalangan oila a’zolari bandligini ta’minalash maqsadida manzilli ro‘yxatlari tasdiqlab olingan. Yanvar-iyun oylari davomida 4 ta loyiha amalga oshirilishi hamda 19 ta yangi ish o‘rnulari yaratilishi belgilangan, haqiqatda 5 ta loyiha amalga oshirilib, 27 ta ish o‘rni yaratildi.

-“Zarbdor” tajribasi bo‘yicha 2025 yil davomida tumanda 6 ta drayver loyihalar shundan, 4 ta *xizmat*, 2 ta *sanoat sohalarida* umumiyligi qiymati 143,0 mlrd.so‘mlik Shundan; Byudjet mablag‘lari 12,0 mlrd.so‘m, tashabbuskor mablag‘lari 131,0 mlrd.so‘mlik “drayver” loyihalarni amalga oshirish hisobiga 500 ta yangi ish o‘rnulari yaratiladi.

Ushbu loyihalardan 1 yarim yillikda (1-bosqichda) Respublika byudjeti mablag‘lari o‘zlashtirilib, 1 ta loyiha ishga tushirilishi natijasida, 250 ta yangi ish o‘rnulari yaratildi.

Tumanimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejovchi texnologiyalarni tashkil etish 2025-yilda 457 ta obyektlarga 3 480 kWt quyosh panellari o‘rnatalishi reja qilib olingan.

Joriy yil yanvar-iyun oylarida 146 ta obyektlarga jami 2 472 kWt quyosh panellari o‘rnatalildi.

Yanvar-iyun oylarida 35,5 mln.dollarlik xorijiy investitsiya lar o‘zlashtirish reja qilingan bo‘lib, amalda 29,5 mln.dollar investitsiyalar o‘zlashtirildi 83 % ga, o‘sish surʼati 2024 yilga nisbatan 130 %ga bajarildi.

Bundan tashqari, qo‘sishma loyiha “Boyraz Tekstil” MCHJ XKning “Tayyor trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish” loyihasi doirasida 430 ming dollarlik investitsiyalar o‘zlashtirildi.

2025 yilda hududiy investitsiya dasturi doirasida qiymati 87,0 mln.AQSH dollar bo‘lgan 61 ta loyihalar ishga tushirilishi natijasida 847 ta yangi ish o‘rnulari yaratilishi rejorashtirilgan.

Yanvar-iyun oylarida qiymati 53,3 mlrd.so‘m bo‘lgan19 ta loyihalar ishga tushirilishi natijasida 92 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

2025 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-407-son qarori bilan Eksport prognoz ko‘rsatkichi 14,4 mln.dollar. shundansanoatga 8,0 mln.dollar, qishloq xo‘jaligida 6,4 mln.dollarlik, (2024 yilning mos davriga nisbatan 11,6 mln dollarga yoki 124 %ga ko‘p) mahsulotlar eksportga yo‘naltiriladi.

Yanvar-iyun oylarida 2 ta yangi korxonalar eksportga jalgan qilib, ular tomonidan 2,0 mln.dollarlik mahsulotlar eksport qilindi.

Qo‘shimcha imkoniyatlarni ishga solgan holda, joriy yil davomida eksport hajmini 17,0 mln. dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

Jumladan, mahsulotlar kesimida quyidagicha: meva-sabzavot mahsulotlari 8,0 mln.dollar, to‘qimachilik mahsulotlari 1,5 mln.dollar, qurilish materiallari mahsulotlari 5,5 mln.dollar, rangli metall maxsulotlari 1,5 mln.dollar va 0,5 mln. dollarlik boshqa turdag'i sanoat mahsulotlari eksportga yo‘naltiriladi.

2025 yil yanvar-iyun oylarida 24 ta mahallada jami 129,0 km yo‘llar ta‘mirlandi shundan asfalt 53,6 km, shag‘al 75,4 km ni tashkil etadi.

Bundan tashqari 10 ta mahallada 13,8 km piyodalar yo‘lagi mahalliy byudjet va homiylik mablag‘lari hisobidan qurildi.

2025 yil yanvar-iyun oylari mobaynidajami 18,6 mlrd.so‘m mablag‘ ajratilib, 12,0 km ichimlik suv tarmoqlari tortilib, 2 dona ichimlik inshootlari qurib foydalanishga topshirilishi natijasida aholining markazlashgan ichimlik suv bilan ta‘minlanganlik darajasi 61,8 foizdan 64,1 foizga, ichimlik suv ta‘minoti yaxshilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.12.2023 yildagi PQ-404-sonli qarori asosida Respublika byudjet mablag‘laridan 30 mlrd.so‘m ajratilib, tuman markazida aholi uchun oqova suv tarmoqlarini qurish, 2025 yil dekabr oyiga qadar foydalanishga topshirish belgilangan.

2025 yil yanvar-dekabr oylarida tuman aholisini uy-joylar bilan ta‘minlash uchun Kadan MFYda 2 ta 5 qavatli 50 ta xonardonli, M.Ulug‘bek MFYda 2 ta 5 qavatli 50 va 30 xonardonli uy joylar foydalanishga topshirilishi ko‘zda tutilgan.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 25 dekabrdagi PQ-454-sonli Qarori asosida 8,28 mlrd.so‘m mablag‘ evaziga 2dona umumta‘lim maktabi, 3,6 mlrd.so‘m mablag‘ evaziga 1 dona MTT binosi rekonstruksiya qilinmoqda.

Shuningdek, tumanda 300 o‘rinli “Muruvvat” internat uyi binosi 51,0 mlrd.so‘m mablag‘ hisobiga qurilish ishlari davom etmoqda.

2025 yilda boshoqli don yetishtirish bo‘yicha tumanda 227 ta fermer xo‘jaliklari tomonidan 8 926 hektar maydonga g‘alla ekilib, 55 ming 787 tonna g‘alla yetishtirildi va davlat oldidagi rejasini 28 ming 567 tonna 106,3 % ga ortig‘i bilan bajarildi. O‘rtacha har bir hektar yerdan 62,5 s/ga hosil olindi.

Tumanda joriy yil 7 233 quti pilladan 434 tonna hosil olish rejalashtirilgan bo‘lib, amalda 435,4 tonna pilla hosili olindi.

Shuningdek, joriy yil erta bahorda 227 ta fermer xo‘jaliklari tomonidan 10 140 hektar maydonga chigit qadab, parvarishlab kelmoqda.

2025 yil rejalar: yil boshida jami 3 620 hektar maydonda suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy etish rejalashtirilgan edi. Shundan tomchilatib sug‘orish 1 460 hektar, yomg‘irlatib sug‘orish 350 hektar, diskret sug‘orish 350 hektar, yerlarni lazerli uskuna yordamida tekislash930 hektar hamda egiluvchan quvurlar orqali sug‘orish 500 hektarni tashkil etadi.

O‘tgan 6 oy davomida jami 2 900 hektar (rejaga nisbatan 160 foizni tashkil etadi) maydon suv tejovchi texnologiyalar yordamida sug‘orildi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi” Qonunining 6- va 25¹-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi yettinchi chaqiriq o‘n uchinchi sessiyasi

QAROR QILDI:

1. Kattaqo‘rg‘on tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan tuman hokimi J.Nasriddinovning hisoboti ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (M.Zavqiyev, M.Rasulov, O.Shirinov, B.Sulaymonov, Sh.Isaqulov, S.Djumayeva)ga tegishli tuman davlat tashkilot va korxonalar rahbarlari bilan birlgilikda:

- “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan keng ko‘lamli islohotlarni 2025-yil—Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili davlat dasturida belgilangan ustuvor vazifalarning o‘z vaqtida va samarali ijro etilishini ta’minalash hamda ushbu dastur ijrosi bo‘yicha keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokida muntazam ravishda mas’ul shaxslarning hisobotini eshitib borish;

- Davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlarning amalga oshirilishi bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, joylarda ijro etilishi ustidan tizimli nazoratni ta’minalash;

- hududlarda “Sayxunobod”, “Uychi”, “Zarbdor” va “G‘ijduvon” tajribalari asosida davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan har bir yo‘nalishlar bo‘yicha mahallalarda har bir ko‘chada xonodon egalari bilan suhbatlashib, tomorqadan maqsadli va samarali foydalanishni, shuningdek, mahallabay ishslash, tomorqa va uy xo‘jaliklaridagi imkoniyatlarni to‘liq ishga solish orqali aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalarni joylarda mas’ullar bilan birlgilikda o‘z vaqtida ijrosini tashkil etish va nazoratga olishni;

- tuman hududlarida foydalanilmayotgan zaxira va imkoniyatlarni ishga solish, tomorqalarning har bir qarichidan unumli foydalanish, xonadonlarda kichik ishlab chiqarishni tashkil qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlarini ko‘paytirish borasidagi ishlarni tizimli tashkil etishni;

- tumanni ishsizlik va kambag‘allikdan holi hududga aylantirishda natijadorlikka erishishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlar ijrosi ta’minalishini;

- har kuni vertikal tizim asosida mahallalarda “mahalla yettiligi” faoliyatini muvofiqlashtirish va amaliy ko‘maklashib borish hamda mahalla raislari bilan o‘zaro axborot almashish, muammolarini eshitish va hal etish choralar ko‘rib borilishini;

- hududiy investitsiya loyihamalarini ishga tushirish hisobiga yaratiladigan ish o‘rinlari prognози hamda tarmoq investitsiya loyihamalarini ishga tushirish hisobiga yaratiladigan yangi ish o‘rinlarini muntazam ravishda tahlil qilib borilishini;

- mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni integratsiya qilish va ularning rasmiy bandligini ta’minalash bo‘yicha nazorat olib borilishi ta’minalasin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Zavqiyev, tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (E.Raximov) bilan birlgilikda tumanda nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlaridan foydalanish darajasini oshirish, xorijdan mehnat migratsiyasidan qaytgan shaxslarni bo‘s sh vakant va yangi

yaratilgan ish o‘rinlarida bandligini ta’minlash, ishsizlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlari ijrosini o‘z vaqtida, samarali va tizimli tashkil etib borsin.

4. Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari — tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i B.Sulaymonov, Kattaqo‘rg‘on tumani Fermerlar Kengashi (M.Mavlonov) hamda tegishli mutasaddi davlat idoralari bilan birgalikda:

- O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasining 2025-yilda tumanda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha qabul qilingan chora-tadbirlarda belgilab berilgan har bir topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida ta’minlash;

- mavjud resurslardan oqilona va samarali foydalanish orqali tumanda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini yanada ko‘paytirish choralarini ko‘rish;

- tumanda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish, sifat nazorati infratuzilmasini rivojlantirish, maqsadli bozorlarda raqobatbardosh, yuqori qo‘shilgan qiymatli qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish choralarini ko‘rish;

- qishloq joylarini muvozanatli va barqaror taraqqiy ettirishga ko‘maklashishni nazarda tutuvchi qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish;

- tumanda oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha qish-bahor oylarida kafolatlangan zaxirani yaratish, zaxirani shakllantirishda asosiy turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari (shakar, o‘simplik yog‘i, un va boshqalar) talabidan kelib chiqib, ularni kvota asosida bozor sharoitlarida sotib olish choralarini ko‘rish;

- tumanda aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash maqsadida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlaridan samarali foydalanish, shuningdek, asosiy turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish natijasida ichki bozorlarda narx-navolarni barqarorligini ta’minlash va zaxirasini yaratishda belgilangan chora-tadbirlar ijrosi nazorat olish;

- tumanda aholining yildan yilga oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini to‘laqonli qondirish uchun oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni hamda aholi bandligini ta’minlash maqsadida dehqon xo‘jaliklarida aholi tomonidan yetishtiriladigan mahsulotlarni saqlash uchun kichik hajmdagi omborxonalar tashkil etish choralarini ko‘rish;

- tumanda belgilangan vazifalarning dasturlarga kiritilgan tadbirlarni o‘z vaqtida to‘liq va sifatli bajarish kabi vazifalar yuklatilsin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (M.Zavqiyev), tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha o‘rinbosari (O.Shirinov), tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (E.Raximov), Yoshlar ishlari tuman bo‘limi (L.Abduqaxxorov), tuman mакtabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Sh.Sultonov), Mahallalar uyushmasining tuman bo‘limi (G.To‘ychiyev), “Mahalla yettiligi” hamda mas’ul davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlari bilan birgalikda:

- tumanda ishsiz va kambag‘allikdan xoli hududga aylantirish bo‘yicha e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha. Bunda:

- tumanda doimiy ravishda mavjud bo‘lgan bo‘sh ish o‘rinlari va bo‘sh ish o‘rinlari yaratish salohiyatiga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari bilan individual tartibda ishlash tizimini davom ettirish;

- tumanda “mahalla yettiligi” tomonidan ishsiz aholi vakillarini bo‘sh ish o‘rinlariga joylashtirish natijalarini kunlik monitoringini olib borish, bu borada “mahalla yettiligi” hamkorligini mustahkamlash;

- tashkil etiladigan har bir “Mehnat yarmarkalari”da mahalladagi ishsiz yoshlarni ishtirok etishini ta’minlash choralarini ko‘rish;

- norasmiy-band bo‘lgan aholi orasida (bozorlar, avtoturargohlar, aholi gavjum joylar) tushuntirish va targ‘ibot tadbirlari olib borish orqali, ularni o‘zini-o‘zi band qilinishini ta’minlash choralarini ko‘rish;

- ishsiz aholi vakillarini kasb-hunar o‘qitish, yo‘nalishlariga qarab bo‘sh ish o‘rinlariga yo‘naltirish hamda ularga subsidiyalar, imtiyozli bank kreditlar ajratish orqali bandligiga ko‘maklashish va tadbirkorlikka yo‘naltirishni tashkil qilishiga ko‘maklashish topshirilsin.

6. Tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rbbosari hokimining o‘rbbosari O.Shirinov, Yoshlar ishlari tuman bo‘limi (L.Abdusaxxonov), tuman maktabgacha va mакtab ta’limi bo‘limi (Sh.Sultonov)ga tumandagi mas’ul davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlari bilan birgalikda:

- O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Qonun osti me’yoriy hujjalarga muvofiq ishlarni tashkil etish;

- tumanda yoshlar o‘rtasida duch kelayotgan dolzarb muammolar, ularning barqaror va barkamol rivojlanishiga to‘sinq bo‘layotgan tahdidlarni aniqlash va bartaraf etib, yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish, shuningdek, qonunchilikdagi o‘zgartirishlar, qabul qilingan yangi qonun va qonunosti hujjalarni tushuntirish va sharplash borasida muntazam ravishda targ‘ibot tashviqot ishlarni olib borish;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-martdagи “Yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 132-sonli qaroriga asosan “Yoshlar daftari” jamg‘armasidagi mablag‘larning maqsadli va shaffoflik asosida sarflanishini nazoratga olish;

- tumanda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar dasturi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish va tahliliy natijalar yuzasidan har chorak yakunida Xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalarida keng muhokama etib borish vazifalari yuklatilsin.

7. Tuman hokimligi Axborot xizmati (J.Safarov), Kattaqo‘rg‘on kecha va bugun gazetasi tahririyati (O‘.Usmonov)ga mazkur qarorni hamda ijro yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish vazifasi yuklatilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda ijrosini ta’minlash tuman hokimi o‘rbbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH